



**O‘TKIR HOSHIMOV IJODIDA ONA OBRAZI
("DUNYONING ISHLARI" ASARI MISOLIDA)**

Eshniyazova Maysara Beknazarovna

ISFT instituti Samarqand filiali

katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimov ijodida ona obrazining badiiy talqini, uning ma’naviy-estetik mohiyati va adib yaratgan onalar timsolining o‘zbek adabiy jarayonidagi o‘rni har tomonlama tahlil qilinadi. Ona obrazi adib ijodining markaziy mavzularidan biri bo‘lib, unda o‘zbek ayolining mehr-oqibati, sabr-toqati, matonati, fidoyiligi va oilaga sadoqati o‘ziga xos samimiylik bilan aks etadi. Maqolada "Dunyoning ishlari", "Odamlar nima derkin?", "Ikki eshik orasi", "Nur borki, soya bor" kabi asarlarda ona timsolining shakllanishi, uning xarakter xususiyatlari, ruhiy kechinmalari, jamiyatdagi ma’naviy mezon sifatidagi o‘rni tahliliy asosda yoritiladi. Adibning ona obrazini tasvirlash uslubida nostalgiya, lirizm, hayotiy voqealar asosidagi drammatizm va chuqur psixologizm asosiy badiiy vosita sifatida namoyon bo‘lishi maqolada alohida baholanadi. Tadqiqot davomida O‘tkir Hoshimov yaratgan ona obrazining milliy mentalitet va umumbashariy qadriyatlar bilan bog‘liqligi, uning o‘zbek oila modeli va jamiyatdagi tarbiyaviy tamoyillarni aks ettiruvchi badiiy timsol sifatidagi ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan asoslab beriladi. Shuningdek, ona obrazining zamonaviy o‘quvchi ongiga ta’siri, adabiy-estetik qimmati, jamiyatda mehr, vijdon, halollik, insoniylik kabi fazilatlarni targ‘ib qilishdagi o‘rni ham o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Ona obrazi, O‘tkir Hoshimov, badiiy tasvir, ma’naviy qadriyat, mehr-muhabbat, milliy mentalitet.

Kirish

O‘zbek adabiyotida ona obrazi eng ko‘p uchraydigan, badiiy talqini boy va ma’naviy jihatdan yuksak timsollardan biridir. Ona — mehr, sadoqat, sabr, hayotning davomiyligi, insonning shakllanishida eng muhim quvvat manbai sifatida adabiyotda o‘zining betakror o‘rniga ega. Ayniqsa, XX asr o‘zbek nasrining yorqin vakillaridan biri O‘tkir Hoshimov asarlarida ona obrazi o‘ziga xos chuqur mazmun kasb etadi. Uning asarlarida ona timsoli oddiy hayotiy voqealar orqali ochiladi, ammo bu oddiylilik ortida teran ruhiy kechinmalar, og‘riq, quvonch, orzu-intilishlar mujassamdir.

Adibning "Dunyoning ishlari" asari o‘zbek adabiyotida ona obrazining eng ta’sirchan badiiy talqinlaridan biri sifatida alohida e’tirof etiladi. Asarda ona personaji nafaqat bosh qahramonning hayotida, balki jamiyatdagi



insoniylik, mehr-oqibat, sabr-toqat mezoni sifatida tasvirlanadi. O'tkir Hoshimov yaratgan ona obrazi milliy mentalitetimiz, oilaviy qadriyatlarimiz va o'zbek ayolining ma'naviy qudratini aks ettiruvchi timsol bo'lib xizmat qiladi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, Hoshimov ijodidagi ona obrazi nafaqat adabiyot nuqtai nazaridan, balki bugungi ijtimoiy-ma'naviy hayot uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ona obrazini tahlil qilish orqali adibning insonparvarlik g'oyalari, milliy qadriyatlarga sadoqati, oilaga bo'lgan yuksak ehtiromi va jamiyat uchun bergan ma'naviy saboqlari chuqurroq anglanadi.⁵⁹

Alloh ato etgan umr atalmish ne'mat koinotda yashashimiz uchun sharoit yaratsa, Tangrining o'zi in'om etgan yana bir buyuk ne'mat, ya'ni ona atalguvchi zot ushbu yer sayyorasida barcha mavjud insonlarning yashashlari uchun arzirli hamda eng ulkan sabablardan biri desak hech ham mubolag'a qilmaymiz. Inson yer sayyorasida tug'ilgan, atrofga o'zgacha va begona nigohlar ila, olam sinoatlarini anglay olmasdan alanglayotgan bir paytda biz ushbu olamning takarorlanmas mo'jizasi deya atayotgan mo'tabar ona timsoligina najot farishtasi bo'la oladi.

Najot farishtasi. Diqqat qiladigan bo'lsak, ushbu so'zlar tilimizda jaranglayotgan bir vaqtda ko'z oldimizda bir olam go'zalliklarning tasviri aks etadi. Biz bir haqiqatni unutmasligimiz darkor. Inson farzandi xoh katta yoshli, xoh o'rta yosh, xoh yosh bola holatida bo'lsin, lek ko'z o'ngida ajib va nafis manzara-yu jannatdagi Firdavs bog'larini jonlantirmog'i uchun birgina „ONA“ so'zini o'ylashning o'zigina kifoya deya olamiz. Hech e'tibor berdingizmi, biz bir soniya ham ortiqcha harakat qilishga ulgurmasimizdanoq, faqatgina ona so'zini ongimizda gavdalantirishning o'zigina shu kabi g'ayritabiiy tasvirlarga sabab bo'lyapti. Yuqorida aytib o'tilgan ta'rif-u tavsiflar dengizdan tomchi deyishimiz mumkin. Negaki inson shunday bir qudratki, bundayin qudratga ega ekanligidan hatto o'zi bexabar. Demak, oddiy bir insonda shundayin kishi tasavvuriga sig'mas darajada ilohiy kuch-qudrat mavjud ekan, biz yuqorida farishtaga qiyos etgan ona timsolida ne-ne qudrat mujassam ekanligi tanho Yaratganga ayon.

Onalar to'g'risida soatlab, balki oylab fikr yuritsak ham, o'ylarimizning nihoyasi bo'lmaydi. Olam, koinot va borliqning ajib va betakror mo'jizasi onaga bag'ishlangan ko'plab doston-u ash'orlar, qissa-yu romanlar, ertak va afsonalarning sanog'i mavjud bo'lmasa ajab emas. Onalar to'g'risidagi biror asar, u qaysi tilda yozilishidan qat'i nazar, har bir kishi qalbida o'zgacha mehr-muhabbat birla mutolaa qilinishi ayni haqiqat. Onalar to'g'risida tengi topilmas asarlar yarata olgan, ijodi jozibadorlik kasb etgan yozuvchilarimizdan

1. ⁵⁹ Yo'ldosheva D. O'zbek nasrida ona obrazi talqini. — Toshkent: Fan, 2017.



biri O‘.Hoshimovdir. Ushbu adibning qay janrda yozilgan ijod namunalariga ko‘z tashlamaylik, unda onalar obrazi hamisha asosiy va bosh o‘rinlarda ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Adibning bir qator shundayin asarlari mavjudki, inson uni shunchaki o‘qib yoki his qilibgina qolmaydi, balki asar qahramonlaridan biriga aylanib qolganligini o‘zi payqamaydi. Adib barchamiz uchun yaxshi tanish bo‘lgan „Dunyoning ishlari“ nomli asarning muallifi bo‘lib, unda yozuvchi asar boshidan oxiriga qadar ona timsolini aks ettirgan. Adib ushbu asarining „Itijo“ qismida aytib o‘tgan ta’sirlanarli bir qismga e’tibor qaratsak: “Esingizdami, oyi, bir marta, atigi bir marta, o‘shandayam hazillashib: “Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o‘g‘lim”,- degandingiz. Men: “Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi?” - degan edim. Xafa bo‘lmang, men ham hazillashgan edim. Mana o‘sha kitob. Yo‘q, uni men yozganim yo‘q. Uni siz yozdingiz. Men uni qog‘ozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar o‘qishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundoq bo‘lsayam, ularning hammasi sizga o‘xshashini xohlayman...” Ko‘rinib turibdiki, adib nafaqat bir ona, balki olamdagi hamma onalarning go‘zalligini yuqorida keltirilgan parchada e’tirof etgandek bo‘ladi. Biz adibning nafaqat mohir yozuvchi, shu o‘rinda vafoli hamda jonkuyar farzand ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz. Sizningcha, adibning bundayin barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida kimning hissi beqiyos deb o‘ylaysiz?

Albatta, ONA! Yozuvchi ijodida muhim ahamiyat kasb etgan asarlaridan biri ham aynan o‘z volidasiga bag‘ishlab yaratilgan “Dunyoning ishlari” nomli qissasidir. Mohir yozuvchi adib tomonidan yaratilgan, har bir kitobxon zavq ila mutolaa qilguvchi asarlaridan yana biri “Ikki eshik orasi” nomli romanidir. Ushbu asar 1986-yilda yozilgan bo‘lib, unda inson hayotining ziddiyat va murakkabliklari, kutilmagan vaziyatlarda inson o‘zini qanday holatda tutishi kerak ekanligi, bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, romanda butun boshli insonlar taqdiri hamda kishi umrining murakkabligi zo‘r mahorat ila tasvir etilgan. Asar urush yillarini qoralaydi. Necha millionlab insonlarning qalblariga og‘ir jarohat yetkazganligi asarda ishtirok etgan ba’zi obrazlarning harakat va aytilgan so‘zlarida yaqqol namoyon bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Ushbu asarda aytishimiz mumkin, ahamiyatga molik bo‘lgan sujet to‘qimalari nihoyatda ko‘p. Asarni mutolaa qilar ekanmiz, ba’zi o‘rinlarda inson qalbini larzaga keltiruvchi voqeliklarga ham ko‘p marotaba duch kelamiz.⁶⁰

Ikki eshik orasi - „Rost bilan yolg‘onning o‘rtasi – to‘rt enlik, degan gap bor, qiziq, nega endi oz emas, ko‘p emas, to‘rt enlik? Gap shundaki, ko‘z bilan

2. ⁶⁰ Abdug‘afforov A. XX asr o‘zbek adabiyotida psixologizm. — Toshkent: Fan, 2010.



quloqning orasi – to‘rt enlik ekan. Eshitganingga emas, ko‘rganingga ishon... Maqsad – shu”.

Ham ona, ham qaynona, ham amma. Yodingizda bo‘lsa taqdir taqozosi bilan tutingan qiziga onalik qilgan qora amma haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, birinchi navbatda olamdagi eng buyuk qalbli hamda ko‘ksi jasorat nuri ila yog‘rilgan matonatli ona siymosi ko‘z oldimizda gavdalanadi. Biz bola Muzaffarga amma, Robiya uchun tutingan ona va o‘z o‘g‘li uchun qaynona bo‘lgan ushbu ona obrazidagi mard va jasur deya berilyotgan ta‘rifni quyidagi parchadan bilib olsak bo‘ladi: “Jilla qursa, shu bolaga rahming kelsa-chi, qizim”. (2-qism.Robiya hikoyasi. 3-bob. 5.Urush. 98-bet). O‘z jigarbandi, farzandining jondan suygan yorini qo‘llari bilan boshqa insonga, aynan farzandining halok bo‘lganligini qanchalar qiyin bo‘lsa ham tan olgan holda qo‘sh-qo‘llab topshirish uchun o‘zida har kim ham kuch topa olmasligi barchangizga ayon. Qora amma timsolida adib yurtimizning metn-bardoshli, har qanday holatda ham irodasini, o‘ziga va o‘zligiga bo‘lgan mustahkam ishonchini yo‘qotmaydigan o‘zbek ayolining go‘zal siymosini nihoyatda yorqin bo‘yoqlarda tasvirlaydi. Munavvarning onasi Bashorat opa. Ushbu obraz qatnashgan o‘rinlarni o‘qir, harakat va so‘zlariga diqqat qilar ekanmiz, ushbu ayolda o‘zbek ayollarining ichki kuch-qudratini go‘yo mukammal, takrorlanmas holatda tasvirlangandek bo‘ladi. Bashoratning shiddatli harakatlari, yo‘g‘on ovozi, kiyinish uslubini bir qarashda jaydari va qo‘pol ayollardek qilib ko‘rsatishi mumkindir, ammo uning qalbiga biroz nigoh tashlashni boshlagan kitobxon asl o‘zbek ayoli, o‘zbek onasi timsoli naqadar ustalik bilan ifoda etilganligiga guvoh bo‘ladi. Adib bu obraz orqali insoniylik, mehr-oqibat, onalik faqatgina o‘zi dunyoga keltirgan farzandiga emas, o‘zga insonlarning farzandlari uchun ham befarq nazar ila qarab o‘tib ketmaslik kerak ekanligini yanada chuqurroq uqtirgandek bo‘ladi.

Ona – u hech qachon xiyonat qilmaydigan, aldamaydigan va sizni eng og‘ir vaziyat bo‘lganida ham chorasiz ahvolda, yo‘lning yarmida tashlab ketmaydigan yagona zot. Biz bu kabi holatni ko‘p marotaba ta‘kidlagandek, xususan, adibning “Dunyoning ishlari” qissasidagi aks etgan ayrim voqea-hodisalar bunga yorqin misol bo‘la oladi. Qissadagi “Gilampaypoq” qismida bo‘lgan ayanchli holat, o‘ylaymanki, barchangizga ayon bo‘lib turibdi. Farzandining sog‘ligi uchun o‘z jonini ayamagan, na issiq, na sovuqni pisand etmagan – ona. Mana sizga ona zotining kichik bir qudrati. Muzaffarning onasi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, ba‘zi kitobxonlar nafratiga duchor bo‘lgan Ra‘no obrazi salbiylikni ko‘rsatgandek bo‘ladi. Biroq mohiyatan, boshqa tomondan nazar tashlaydigan bo‘lsangiz, Ra‘no ham noilojlikdan, hali go‘dak bo‘lgan, ko‘krak sutidan ajralmagan farzandini yerga tashlab ketish oson bo‘lmagan edi. Uning noilojligi, qo‘llariga kishan faqatgina Muzaffarning



o'gay otasi Umar zakunchiga bo'lgan muhabbati edi. Biz Ra'no yillar davomida farzandining firoqida ado bo'lgan, sog'inchdan entikkan ko'zlarini yillar o'tib singlisi Nasiba tomonidan xonaga olib kirilgan Muzaffarni ko'rib naqadar baxtiyor bo'lganligidan ham bemalol anglashingiz mumkin. Muhim jihatlaridan biri shundaki, ona hamda farzand o'rtasidagi muhabbat rishtasini hech kim, hech narsa ajrata olmaydi!

Biz jannat poyida bo'lgan onalarimiz oldidagi qarzimizni hech mahal uza olmaymiz. Kechalarini biz sababli bedor o'tkazgan, ko'zlarining nuri, qo'llarining quvvati, bellarining madorini biz farzandlari uchun fido qilgan mo'tabar ona timsoli qarshisida qancha ehtirom aylasak, ular uchun qancha alyor aytib olqishlasak oz. Bir kishi payg'ambarimizdan so'rabdilar: "Yo Rasululloh (s.a.v) men onamni yelkamda ko'tarib, bir kun Kaba va Makkani ziyorat qildirdim. Endi men onamning oldidagi qarzimdan xalos bo'ldimmi?" - degan paytda payg'ambarimiz (s.a.v) bunga javoban: "Sening qilgan bu ishing validangning seni dunyoga keltirar mahal chekkan azoblarining mingdan biricha bo'lmagay!" - degan ekanlar. Allohdan so'raydigan yagona istagimiz ham onalarimizni o'z panohida asrashligidan boshqasi bo'lmasligi kerak, nazdimda. Allohim, onalarimizni o'zing har vaqt panohingda asra.

Xulosa

O'tkir Hoshimov ijodida ona obrazi adibning badiiy dunyoqarashi, ma'naviy tamoyillari va xalqchil ruhining eng yorqin ko'rinishidir. Uning asarlaridagi ona timsoli mehr-muhabbat, sabr-toqat, halollik, poklik va insoniylikning timsoli sifatida talqin etiladi. Adib ona obrazini ideal darajaga ko'tarmaydi, balki uni hayotiy, oddiy, ammo ulug' fazilatlar bilan boyitilgan holda tasvirlaydi. Shu bois Hoshimov yaratgan onalar o'quvchi qalbini larzaga soladi, unda tuyg'ular uyg'otadi, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, adibning ona obraziga bo'lgan munosabati samimiy, chuqur ruhiy va milliy tafakkur bilan uyg'unlashgan. Hoshimov ijodidagi onalar umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan bo'lib, ular orqali o'quvchi hayotning mazmuni, mehrning qadrini, ona mehrining beqiyosligini angelaydi. Shu sababli O'tkir Hoshimov asarlaridagi ona obrazi o'zbek adabiyotida o'zgarmas badiiy va ma'naviy timsol sifatida qadrlanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Hoshimov O'tkir. "Ikki eshik orasi". Roman. Toshkent, 2012.
2. Hoshimov O'tkir. "Dunyoning ishlari". Qissa. Toshkent, 2018.
3. Yo'ldosheva D. O'zbek nasrida ona obrazi talqini. — Toshkent: Fan, 2017.
4. Mamadaliyev A. O'zbek adabiyotida obrazlar tizimi. — Toshkent: Universitet, 2014.



5. Abdug'afforov A. XX asr o'zbek adabiyotida psixologizm. — Toshkent: Fan, 2010.
6. Suyunova M. "O'tkir Hoshimov asarlarida oilaviy munosabatlar talqini" // Adabiyot va san'at jurnali, 2019.
7. Sharopov Sh. O'zbek adabiyoti nazariyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2016.
8. Jo'rayev R. Hozirgi o'zbek adabiyotida milliy qadriyatlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
9. Safarov Sh. Badiiy asar tahlilining lingvopoetik asoslari. — Toshkent: Fan, 2013.
10. [www. ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
11. www. edu.uz.
12. www. kitob.uz.
13. www. ma'naviyat.uz.